

## CHET TILLARINI O'RGATISH VA UNDAGI SAMARALI METODLARDAN FOYDALANISHNING O'RNI

**Islomova Gulyoraxon Umidjon qizi  
Qo'qon universiteti Xorijiy til va adabiyoti  
yo`nalishi 1-kurs talabasi,  
Qodirova Nozimaxon  
Qo'qon universiteti o'qituvchisi**

**Annotatsiya:** Chet tili o`qitish metodlari qiyosiy, aralash va to`g`ri metod turlaridir. Metodning grammatika-tarjima turi nuqtayi nazaridan olib qaralganda, chet tili umumta`limiy maqsadda o`rganilgan. Turli grammatik mashqlar til o`rganuvchinining mantiqiy salohiyatini rivojlantirish maqsadida o`rgatilgan. Yuqorida metod orqali chet tilini o`qitish to`g`risida sistemali grammatik nazariya bosh ahamiyat kasb etadi.

**Kalit so`zlar:** grammatik shakl, muloqot vositasi, metod, xorijiy til, matn, tarjima.

Kishilik jamiyatidagi muhim narsalardan biri til o`rganishdir. O`zaro muloqot vositasi bo`lgan tilni oilada, ya`ni tabiiy muhitda, jamoatchilik orasida yoki yig`ilgan holda, ya`ni darslarda amaliy egallash mumkin. Nazariy jihatdan o`rganiladigan bilimlar esa til hodisalriga oid bilimalardir. Kun sayin rivojlanib borayotgan xalqaro munosabtlar avj olgan zamonda xorijiy tillarni o`rganish, ayniqsa, ko`p tillilik, aniqroq qilib aytganda, poliglossiya muhim ahamiyatga ega.

Hozirgi kunga keling tahsil olayotgan ko`plab talabalar va o`quvchilar asosan uch xil tilni o`rganmoqdalar. Ta`lim nazariyasida esa ularning o`z nomlari bilan yuritiladi. Ular: ona tili, ikkinchi xorijiy til va xorijiy til.

Bilamizki, barchaning o`z ona tili aqliy tafakkur rivojlanishida asosiy o`rin tutadigan birinchi tildir. Ona tilidagi so`zlar orqali o`rganilgan muayyan tushunchalar ikkinchi yoki xorijiy tilni o`zlashtirish jarayonida o`zga tildagi so`zlarning tovushdagi va yozuvdagagi ko`rinishida namoyon bo`ladi. Ona tili, ikkinchi xorijiy til va xorijiy tilda o`rganiladigan so`z (misol uchun: daraxt-tree-un arbre-ein Baum) sanog`I jihatidan uchta, biroq ular ma`no ifodasidan anglanadigan tushuncha esa yagona: "Qaysidir ma`noda butun insoniyat va tabiat, uchun umuman olganda borliq uchun eng muhim bo`lgan o`simlik turidir". O`quvchi, talabalar esa o`zga tilda o`rganayotgan tushunchalarni ona tilidagi so`zlar bilan mantiqan bog`laydilar.

Ikkinci til haqida fikr yuritilganda, unga boshqa millat vakillaridan bo`lgan qardosh xalqlar tillari, qo`snilari tili sifatida qaraladi. Sir emaski, til kishilik jamiyatida, umuman olganda hayoti yo`lida atrofdagi jamiyat bilan yaxshi aloqada bo`lishga, hurmat va sazovorga ega bo`lishga, do`stlar orttirishga, yaxshi nom qoldirishga ko`mak beradigan tenggi yo`q vositadir. O`rta va oliy o`quv yurtlarida boshqa tillarda ta`lim oluvchi talabalar uchun ikkinchi til atamasi tanish tushunchadir.

Xorijiy til – bu biror bir xorijiy mamlakat tilidir. Bizning respublikamizda G`arbiy Yevropa (fransuz, nemis, ispan, ingliz) tillari va Sharq mamlakatlaridan (turk, arab, urdu, fors, yapon, xitoy) tillari tehsil berilmoqda va bu tillar ta`lim rejasidagi o`quv rejalaridan joy egallagan.

Har uchala tilni o`rgatish jarayoni turli yo`sinda kichadi: birinchi o`rinda o`z ona tilida tafakkur rivojlanadi, bundan tashqari, fonetika, leksika va grammatikaga xos xususiyatlarni anglash va his etish-o`zga tillarni o`rganish bilan bog`liqdir; ikkinchidan esa til o`rganish tartibi o`z ona tilidan boshlanib, keyingi navbatda ikkinchi til va bundan so`ng xorijiy tilga o`tiladi; uchinchidan, tabiiy vaziyatda ona tili va ikkinchi til o`rganiladi, sun`iy muhitda esa chet tili o`rganiladi. Yuqorida tushunchadan ayonki, uchala tillar orasida xorijiy tilni

o`rgatish va o`rganish ayrim muayyan jihatlari bilan sezilarli farq qiladi. Ushbu holat esa, o`z o`rnida, tegishli chet tilini o`qitish metod va texnologiyalardan foydalanishga sabab bo`ladi.

Asosan, chet tilini o`qitish metodlari to`rt nom bilan ma`lum va shu bilan birga mashhur hamdir. Ular: to`g`ri, aralash va qiyosiy hamda tarjima metodlaridir.

Masalan, tarjima metodi: ular asosan ikki xil turda bo`lib, grammatika-tarjima va matn-tarjima metodlaridir.

Grammatika-tarjima metodi nazariyasiidan, chet tillari umumta`limiy maqsadda o`zlashtirilgan. Turlicha Grammatik mashqlar til o`rganuvchining aqliy va mantiqiy tafakkurni shakllantirish maqsadida bajarilgan. Grammatik-tarjima metodi orqali chet tilini o`rgatish mazmunida sistemali Grammatik nazariya bosh ahamiyatga egadir.

#### **Metodning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:**

1. Til o`rgatish yozma nutqqa asoslangan.
2. O`rganish predmeti qilib grammatika olingan, leksika ham unga tobe ravishda tanlangan. Grammatik mashqlar bajarish asosiy ish usuli bo`lgan.
3. Grammatik qoida yod olingan va qoidalar asosida gap tuzish tavsiya etilgan.
4. Grammatik shakl va so`zlarning ma`nosi so`zma-so`z tarjima vositasida ochib berilgan.
5. So`zma-so`z tarjima va yodlash yo`li bilan til materiali o`zlashtirilgan.
6. So`zlarni kontekstdan tashqarida, yakka-yakka yodlash bilan chegaralangan.

Matn-tarjima metodining asosiy funksiyasi ham umumiyligi ta`lim berishga yo`naltirilgan, biroq maqsad grammatika-tarjima usulidagidek mantiqiy tafakkurni rivojlantirish emas, balki til o`rganuvchining umuman aqliy salohiyati rivojiga yo`naltirilgan.

#### **Matn-tarjima metodi funksiyalari:**

1. Yozma nutq asosida chet tili o`qitilgan.
2. Bog`lanma va ko`pincha asl nusxadagi matn olingan.
3. Matnni o`rganishda analiz uchun ko`p kuch va vaqt sarflangan.
4. So`z va grammatik shakl ma`nosini yoritish usuli-tarjima.
5. Til materiali tarjima va yod olish orqali o`rganilgan.

Tarjimasiz metod. Bu metod ikki turga bo`linadi: tabiiy va to`g`ri metodlar.

Masalan, tabiiy metodning asosiy vazifasidan biri, ona tilini egallash sharoitiga chet tilini o`rganish mos bo`lishi joiz. Metodning yana bir maqsadi chet tilida so`zlashishni o`rgatish va shu bilan birga kundalik hayotiy mavzular haqida gapira olishni o`rganish orqali o`qish hamda yozishni o`zlashtira olishga imkoniyat yaratiladi. Shu yo`sinda metod namoyondalarining ijodiy faoliyatlarini yaqqol misol qilib keltira olamiz.

M.Berlis metodi. U 1878-yilda AQSHda chet tili o`qitish kurslarini tashkil qilgan va darslilar yaratgan chet tillari o`qitish metodikasi tarixida atoqli metodist olim.

M.Berlis sistemasining asosiy metodik qarashlarini u yozgan darsliklarning muqaddima qismidan o`qib olish mumkin:

1. Til materialini idrok etish immanent tarzda, tarjimasiz bo`lishi kerak. So`z bilan narsa fikran bevosita bog`lanishi, ona tili so`zlar bilan aloqa o`rnatilmasligi hamda grammatik tushunchalarini kontekstda, ong ishtiropkisiz ona tili bilan qiyoslamasdan idrok etish.
2. Muallimga taqlid qilish orqali til materialini mustahkamlash.
3. Chet tili o`rganishda ona tili ishtirop etmasligi.
4. Til hodisalarini ko`rgazmalar yordamda ma`nosini yoritish.
5. Yangi materialni avvalo og`zaki taqdim etish.
6. O`quvchilarni nutq faoliyatiga undovchi muallim va o`quvchi juft nutqi (suhbati) boshqalaridan ma`qul ish uslubidir.

F. Guen metodi. Fransuz metodisti bo`lgan F.Guen tabiiy metod vakillaridan biri bo`lib, u chet tilini o`z ona tilini o`rgangandek amaliyotda o`rganish tarafdori bo`lgan. U leksikaning

mavzular (uydagi hayot, maktab, jamiyat, tabiat) bo'yicha tasnifini metodikada ilk bor kashf qilgan.

Quyidagi qonun-qoidalar asosida chet tilini o'rganishni tatbiq etgan:

1. Odam o'z ehtiyojidan kelib chiqib til o'rganishi.
2. O'rgatish birligi qilib so'z emas, gap tanlanishi.
3. Til o'rgatishda og`zaki nutq birlamchi hisoblanishi.

F.Guen o'z tadqiqotlaridan kelib chiqib chet tili lug'at boyligini asosiy uch turga ajratadi: obektiv, subektiv hamda ifodali tushunchalarni bildiruvchi so'zlar. Obektiv guruhgaga dunyoga oid va tabiatga tegishli tushunchalar-hayot, jamiyat kabi so'zlar misol bo'la oladi. Subektiv guruhgaga esa inson ruhiga taaluqli tushunchalarni ifodalovchi so'zlar: tushunmoq, xohlamoq, kulmoq kabilalar misol bo'lishi mumkin va uchinchi toifaga esa obektiv va subektiv so'zlarni birlashtiruvchi tushunchalar: chiroy, do'stlik va h.k.

Aralash metodlar. Chet tillarini o'qitish tobora avj olib borar ekan, ommaviy maktablarda tajribasiz (tabiiy va to'g'ri) metodlardan kutilgan samara bo'maganligi tufayli avvalgi qo'llangan metodlardan omuxta ya`ni gibrid qilib dars o'tish (til o'rgatish) vujudga keldi.

Xulosa o'rnidida shuni aytib o'tish joizki, chet tillarini o'rganish ko'p qirrali tadqiqot bo`lib, bu jarayonda inson yana ham mukammallahadi. Masalan, psixologik o'zgarishlarni boshdan kechirish, shu jumladan, ona tili va chet tilini solishtirish jarayoni sodir bo`ladi. Albatta ushbu jarayonda turli xil o'qitish metodlaridan foydalanishga to'g'ri keladi. O'z o'rnidan turli metodlardan foydalanish kutilganidek samara beradi va chet tili o'rganishda intensivlikni ta'minlaydi. Bu esa, til o'rganish jarayonini soddalashtiradi va o'ylanganidek yetarli samara beradi. Ya`niki, chet tili o'rganishga va o'rgatishga talaygina qulayliklar hamda imkoniyatlar eshigini ochadi. Bu orqali ko'zlangan maqsadga osonroq erishiladi va yuqoridagi metodlar ham bunga albatta o'z hissasini sezilarli darajada qo'shadi. Bundan anglashimiz joizki, chet tili o'rgatishda va o'rganishda metodlardan foydalanish yetarlicha ahamiyatga egadir.

### **Foydalanimgan adabiyotlar**

1. Axmedova S. R. Ta'lif jarayonlarini integratsiyalash samaradorligi
2. Fan va ta'lif. - 2021. - 2-jild. -N: 9. - S. 369-373.
3. Axmedova S.R. va Masofaviy ta'lif va uning chet tilidagi o'qitish o'rni Fan va ta'lif. - 2021. - 2-jild. -N: 10. - S. 608-612.
4. Ingliz tilini o'qitish metodikasi: Pedagogika institutlari va pedagogika universitetlari uchun darslik.
5. Chet tillari fakultetlari. - L.: Ta'lif, 1975. - 312 p.
6. Axmedova S. R. va boshqalar Ta'limda innovatsion texnologiyalardan foydalanish yo'llari jarayonlari. Fan va ta'lif. - 2021. - 2-jild. -N: 10. - S. 492-496.
7. Rogova G.V. Ingliz tilini o'qitish metodikasi
8. Ingliz tilini o'qitish metodikasi. Talabalar uchun qo'llanma ped. spetsifikatsiyaga muvofiq inv. 2103-son "Chet tili" / G.V. Rogov. - 2-nashr, nashr.
9. M.: Ma'rifat, 1983. - 351 b. - Ingliz tilida. - B. c.